

**MAVZU: “UNIVERSITETLARDA ARXIV UCHUN XUJJATLARNI
RO’YXATGA OLISHNI AVTOMATLASHTIRUVCHI DASTURIY
TAMINOTNI ISHLAB CHIQISH”**

MUNDARIJA.

KIRISH.	3
I.BOB. ARXIVSHUNOSLIK. ARHIV TIZIMLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI TUTGAN O`RNI.	5
1.1 Axborot texnologiyalarini jamiyatni turli sohalarda qo`llanilishi.	6
1.2 Universitet arxivining tuzilishi va ishlash strukturasi.....	16
II.Bob. TIZIM MA`LUMOTLAR BAZASI VA UNING TARKIBIY QISIMLARI ISHLAB CHIQISHDA QO`LLANILADIGAN TEKNOLOGIYALARNI TANLASH.	21
2.1 Tizimni ishlab chiqishda qo`llaniladigan texnologiyalarni tanlash.	22
2.2 Tizim ma`lumotlar bazasi va uning tarkibiy qisimlari.....	37
2.3 Tizim imkoniyatlari va foydalanuvchidagi yo`riqnoma	41
III.BOB. TEXNIKA HAVSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI.	50
3.1 Kompyuter oldida uzoq muddat o`tirib ishlash va elektromagnit nurlanishlar ta`siri.	51
3.2 Kompyuterning ko`rish organlariga ta`siri	53
3.3 Kompyuterning qo`l kafti va barmoqlarga nojo`ya ta`siri va asab tizimiga salbiy ta`siri	55
XULOSA	57
FODALANILGAN ADABIYOTLAR	59
ILOVA	Ошибка! Закладка не определена.

KIRISH.

Hozirgi kunda axborot va kompyuter texnologiyalari iboralari kundalik turmushda eng ko`p qo`llaniladigan tushunchalar desak mubolaa bo`lmaydi. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta axborotlar bilan ish ko`ramiz. Ya'ni axborotlardan foydalanish, axborot almashinish, ularni uzatish inson faoliyatning asosiy negizini tashkil etadi.

Axborot bu- aniq va amalda ishlatiladigan xabardir. Berilganlar esa xabarlar, kuzatishlar natijalarini o`z ichiga oladi. Biror zaruriyat bo`yicha imkoniyat tuilganda, masalan, narsa to`risidagi bilimni oshirish paytida bu axborotga aylanadi.

Axborotlarni, ma`lumotlarni saqlash va ularni saqlashda arhivlarning tutgan o`rni katta. O`zbekiston Respublikasining "Arxivlar to`risida"gi qonuni 1999- yil 15 –aprelda tasdiqlandi. Hozirgi kunda arhiv hujjatlarni avtomatlashtirish yo`lida bir qancha chora tadbirlar ko`rilmoqda.

Arxiv (lot. archivum, yun. archeion — muassasa) hujjatlar saqlanadigan joy; 2) idoralar, tashkilotlar, shuning-dek ayrim shaxslar ish faoliyati davomida to`plangan hujjatlar majmui.

Arxiv xujjatlari - fuqarolar, jamiyat va davlat uchun axamiyati bois saqlanishi lozim bo`lgan matnli, qo`lyozma va mashinada o`qiladigan xujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar;

Hozirgi kunda axborot texnologiyasijamiyatning jadal rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omildir. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo`lgan bo`lsa- da, hozirgi

zamon axborotlashgan jamiyatning o`ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida etakchi o`rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boliq faoliyat sohalari tashkil etadi. Axborot texnologiyalari sohasida bevosita ishlaydigan odamlar ham kundalik ishlari sohasida bevosita ishlaydigan odamlar ham kundalik ishlarida uning imkoniyatlaridan foydalanadi. Axborot texnologiyalari turmushning barcha sohalariga brogan sari ko`proq singib borib, uning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.

Universitetlarda arxiv uchun xujjatlarni ro`yxatga olishni avtomatlashtiruvchi dasturiy taminotni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti.

Statistika, Veb texnologiyalar, ma'lumotlatni intellectual taxlili , expert tizimlar

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Universitetlarda arxiv uchun xujjatlarni ro`yxatga olishni avtomatlashtiruvchi dasturiy tizim yaratib uni bo`lim elektron hujjat almashish tizimini ichiga joylash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

- Universitetlarda arxivni o`rganib chiqish;
- Universitetlarda arxiv bo`limi elektron hujjat aylanish tizimi ma'lumotlar; bazasini taxlil qilish;

Universitetlarda arxiv bo`limi elektron hujjat aylanish tizimi yaratilgan; vositalarini o`rganish;

**I.BOB. ARXIVSHUNOSLIK.
ARHIV TIZIMLARIDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI TUTGAN
O`RNI.**

1.1 Axborot texnologiyalarini jamiyatni turli sohalarda qo'llanilishi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratilishi mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi axborot texnologiyalari axborotlarni ishlab chiqadigan, undan foydalaniladigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohasini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki aynan mana shu narsa butun jamiyatning axborotlashtirilishi uchun asos va muhim zamin bo'ladi.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darhaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish- inson hayotining barcha jabhalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boliq obektivjarayon hisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o'sishi hamda fan – mexanika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini besh asosiy yo'nalishiga ajratish mumkn:

1. Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoyonining vosita jarayonini kompleks avtomatlashtirish.

2. Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish.
3. Tashkiliy – iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.
4. Aholiga xizmat ko`rsatish sohasini axborotlashtirish. Ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

Axborot har qanday fan borligini ba'zi tushunchalarni umumlashgan bir-biriga bolangan holda o`rganadi. Masalan, fizika fanidagi voqealar hodisalar ularning kelib chiqish shart- sharoitlari, ulardan hayotda foydalanish kabilar foydalanadi. Fizikani o`qitishda turli usul va uslublardan foydalaniladi. Fizikada bilishning asosini nazariy bilim va o`zlashtirilgan bilimni amalda tekshirish tashkil etadi. Har ikki holda ham materialni o`zlashtirishda ma'lum darajadagi axborotlar majmui o`quvchilar ongiga etkazish.

Axborot texnologiyasi (AT) ob'ekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig`ish, qayta ishlash va uzatish (boshlang`ich axborot) vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Telekomuniktsiya kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatish.

Axborot jamiyatining moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommuniktsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Ko`rinib turibdiki, bu talqinlardan birinchisi eng to`liq, axborot jarayonlari ko`p qirraligini qamrab oluvchi tushunchani bermoqda. Chindan ham, axborot jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bormoqda.

Yuqorida qayd qilinganidek, jamiyatni axborotlashtirishda muhim tushunchalardan biri axborot zaxiralari tushunchasidir.

Axborot zaxiralari - alohida hujjat va alohida hujjat to`plami, axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, boshqa axborot

tizimlaridagi)dagi hujjatlar va hujjatlar to`plamidir.

Texnologiya – so`zi yunoncha (techne) san`at, mahorat, o`quv ma`nolarini anglatadi.

Axborot texnologiyalarining maqsadi inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror bir hatti - harakatni bajarish bo`yicha qaror qabul qilishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari - shaxsiy kompyuterlar va telekommuniktsiya vositalaridan foydalangan holda foydalanuvchi ishining do`stona interfeysli axborot texnologiyasidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining uch asosiy tamoyili:

- kompyuterli interaktiv (muloqotli) ish rejimi;
- boshqa dasturiy mahsulotlar bilan integrtsiyalashlik (tutashish), o`zaro aloqa;
- ham ma`lumotlar, ham vazifaning qo`yilishi jihatidan o`zgarishlar jarayonlarining moslashuvchanligi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy xususiyatlari(1.1.1-rasm).

Uslubiyat	Asosiy belgi	Natija
Axborotni qayta ishlashning prinsipial yangi vositalari	Boshqaruv texnologiyasi "ichiga o`rnashish"	Kommuniktsiyalarning zamonaviy texnologiyasi
Yaxlit texnologik tizimlar	Mutaxassislar va menejlar ishining integrtsiyasi	Axborotni qayta ishlashning zamonaviy . texnologiyasi
Axborotni maqsadga yo`naltirilgan xolda yaratish, uzatish,	Ijtimoiy muhit qonuniyatlarini hisobga olish	Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy texnologiyasi

saqlash va aks ettirish		
-------------------------	--	--

1.1.1-rasm.

Axborot texnologiyalari o'ziga asosiy muhit bo'lgan axborot tizimlari bilan chambarchas bog'liq. Axborot texnologiyalari kompyuterda saqlanuvchi ma'lumotlar ustidan turuvchi turli murakkablik darajasidagi operatsiyalar, amallar, bosqichlarni bajarishning aniq reglamentli qoidalaridan tashkil topadi. Axborot texnologiyasining asosiy maqsadi - axborotni saqlash va uzatishni tashkil etish.

Zamonaviy axborot texnologiyasidan foydalanishning oqilona uslubiyati katta moslashuvchanlikka erishish, umumiy standartlarni qo'llab - quvvatlash, mahalliy axborot mahsulotlarining to'ri kelishini amalga oshirish, faoliyatda bir - birini takrorlashni kamaytirish va boshqalarni amalga oshirish imkoniyatini va iqtisodiy jihatdan yuqori unumdorlikka erishishga yo'l ochib beradi.

Axborot texnologiyalarining samaradorligi va moslashuvchanligi ko'p jihatdan qaror qabul qilishni qo'llab - quvvatlashning interfeys tizimi xususiyatlariga bo'liq. Interfeys: foydalanuvchining tili; display ekranida muloqotni tashkil etuvchi kompyuter xabarining tili, foydalanuvchining bilimini belgilaydi.

Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallasib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Ya'ni milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning tutgan o'ni tobora yuksalmokda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamarilgan axborot va bilimlarning 90 % i so'nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida, jumladan, ta'limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalanadigan umumiy hajmi kelgusida davlatlarning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofa qobiliyatini ham belgilab beradi, deyishga jiddiy asos bor.

Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, zamonaviy axborot texnologiyasi, modellash, ma'lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi.

Axborot - ijtimoiy, iqtisodiy tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plagan tajribalari majmui demakdir. Inson axborot oqimi ichra yashar ekan, turli-tuman voqea, hodisalar va jarayonlarning bir - biriga aloqadorligini, o'zaro munosabati mohiyatini tahlil etish, mushohada va mulohaza qilib ko'rish maqsadida ko'pdan ko'p dalil va raqamlarga murojaat qiladi. Axborot tufayli nazariy bilimlar amaliyot bilan birlashadi.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti axborot oqimining juda ham kengayishiga olib keldi. Axborot oqimining tobora kengayib borganidan shu narsa ham dalolat bera oladiki, o'tgan asrning 70-yillar o'rtalariga kelib oqib chiqarish kuchlari taraqqiyoti shunday darajaga etgan ediki, ulardan oqilona foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirish uchun yiliga 1016 arifmetik amalni bajarish kerak bo'ladi. Tabiiyki, bunday murakkab hisob - kitobni cho't qoqib amalga oshirib bo'lmaydi. 10 milliard kishi bir yil davomida tinmay ishlagan taqdirdagina shuncha arifmetik amalni echa olishi mumkin.

Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot — bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs

turidir.

XXI asrga kelib insoniyat tarixida ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida axborot ish quroliga aylandi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborot sohasiga o'tib borishi tendentsiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi oshib bormoqda. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Axborot hajmining ortishi va uni qayta ishlash vositalarining rivojlanmaganligi insonning u to'g'risida ta'savvurga ega bo'lishi va ulardan foydalanishini qiyinlashtiradi. Ko'plab vaqt axborotni qidirishga, ajratishga va foydalanishga ketadi. Axborot fondlari har bir insonga xizmat qilishi uchun yangi, zamonaviy vositalar kerak bo'ladi. Shuning uchun XX asr o'rtalariga kelib axborotni ishlash sohasida ko'p odamlar shug'ullana boshladi. Axborot bilimlar manbai sifatida jamiyat uchun strategik resursga aylandi. Bu resurslardan samarali foydalanish esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liq.

Axborotlashtirish jarayoni deganda – inson faoliyatining muhim yo'nalishlarida olingan bilimlardan samarali foydalanish uchun ko'rilgan kompleks chora-tadbirlar tushuniladi.

Zamonaviy va samarali yechimlar topish uchun ko'plab, struktura jihatidan murakkab axborot tizimi yaratilmoqda, natijada, axborotlashtirish jarayonida ishtirok etuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu jamiyat va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'plab mablag'larini shu sohaga jalb qilishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida insonlarni axborot resurslaridan ratsional foydalanish yo'llarini qidirishga majbur qilmoqda. Zamonaviy sharoitda yangi axborot oqimi qanchalik tez ko'paysa shu bilan birga ularning

eskirish muddatlari ham tezlashmoqda, bu o'z navbatida, axborotni tanlash, unga erishish qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda.

Har bir injener, xizmatchi, rahbar o'z faoliyati davomida ko'plab qog'ozlarga bitilgan axborotni tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bu esa axborotga erishish uchun ko'plab vaqt sarflashga to'g'ri kelib, ishni tashkil qilish unumdorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday muammolarni samarali echish jamiyatni axborotlashtirish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Jamiyatni axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit ratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir .

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni quyidagi qator muammolarni hal etilishini talab etadi:

1. Hisoblash texnika vositalarini jamiyat faoliyatining barcha tarmoqlariga tadbiq qilish.
2. Jamiyat a'zolarini hisoblash texnikasi vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish.
3. Jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirishda axborot resurslaridan to'la va samarali foydalanishlarini ta'minlash.

Axborotlashgan jamiyat – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir.

Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborot iqtisodiyotining rivojlanishi;
- axborot tangligini bartaraf etish;
- axborot texnologiyasining globalligiga erishish;

- turli axborot resurslariga erkin kirib borilishi;
- axborot resurslarining ustunligini ta'minlash;
- yangi axborot texnikasi va texnologiyalarini keng qo'llash;
- boshqaruv faoliyatida axborotdan samarali foydalanish.

Axborotlashgan jamiyatda inson axborot bilan ishlash bo'yicha ma'lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun shaxsni axborotni tez qabul qilish va katta hajmini qayta ishlash, zamonaviy vositalar, usullar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash lozim.

Axborot madaniyati deganda – jamiyat a'zolarining axborotdan maqsadli foydalanish, axborotni qayta ishlash va uzatish, zamonaviy texnik-tashkiliy vositalardan va usullaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi tushuniladi.

Axborotlashgan jamiyat quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- texnik qurilmalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatida kompyuter, axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- turli manbalardan axborotni olishni bilish va undan samarali foydalanish;
- axborotni tahliliy qayta ishlash asoslarini egallash;
- o'z faoliyatiga ta'luqli axborotni bilish va u bilan ishlashni uddalash.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanish va takomillashish muammolariga bag'ishlangan chet el va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari salmog'i oz emas.

«Axborotlashgan jamiyat» tushunchasini birinchilar qatorida amerikalik iqtisodchi olim F. Maxlup ilmiy doiraga kiritgan. U monopoliya raqobatida patentlashtirish tizimining tutgan o'rnini statistik usullar asosida o'rganib, AQSh yalpi ichki mahsulotida axborotning miqdoriy jihatdan tavsiflanishini ko'rib chiqdi. Olim axborotni tovar sifatida qabul qilish kontseptsiyasiga asoslangan holda Amerikada kelajakda jamiyat rivojlanishining asosiy sharti

«axborotlashgan iqtisod» bo`lishi g`oyasini ilgari surdi.

O`z kontseptsiyasida F. Maxlup AQSh da nafaqat ilmiy-texnik axborotning, balki hoxlagan ijtimoiy axborotning tarqatilishi va ishlab chiqarilishining o`shishini tavsiflovchi aniq empirik materiallardan foydalandi.. Keyinchalik AQSh va boshqa mamlakatlarda «axborotlashgan jamiyat» kontseptsiyasini P.Drakker, D.Bell, E.Parker, M.Porat, A.Toffler, A.Mol, J. Stigler, K.Errou kabi bir qator iqtisodchilar oldinga surishdi. Hozirgi kunda ular olib borgan tadqiqotlar natijasi o`laroq milliy iqtisodda «axborot tarmog`i», «axborot iqtisodi» va «axborotlashgan jamiyat» kabi kontseptsiyalar vujudga kelgan.

Jamiyat rivojlanib borishi va texnologiyalarning murakkablashishi natijasida, axborot hajmi shunchalik ko`payib ketdiki, uni boshqaruv sohasida qayta ishlamaslikning iloji bo`lmay qoldi.

Boshqaruv irarxiyasining paydo bo`lishi, tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi, hisoblash mashinalarining yaratilishi boshqaruv uchun katta hajmdagi axborotni qayta ishlashda ushbu qiyinchiliklarni engish imkonini berdi.

Hozirda rivojlanish darajasi shu darajaga etdiki, endilikda axborot hajmi va murakkabligi axborot sanoatini yaratishni talab qilmoqdarxivAxborot miqdori mamlakat milliy iqtisodi, tarmoq, iqtisodiy ob'ektlar rivojlanishini belgilaydi. Axborot strategik resursga aylanib, axborot resurslari esa uning muhim turlaridan biri sanaladi.

Hozirgi paytda axborot hajmining ortishi va uning murakkablik darajasining yuksalishi axborot industriyasini barpo etishni talab etmoqdar. Axborot mavjudligi mamlakatning rivojlanishi, tarmoqlar, iqtisodiy ob'ektlar yuksalishini belgilab beradi. Axborot strategik resurs, axborot resurslari esa ulardan eng muhimi bo`lib qoldi. Bu resursning umumiy foydalanadigan hajmi yaqin kelajakda davlatlarning strategik, shu jumladan mudofaa qobiliyatini

belgilab beradi.

Har qanday iqtisodiy ob'ekt ayrim bir tashqi muhitda faoliyat ko'rsatadi. Ushbu iqtisodiy ob'ekt ichki muhitni ham yuzaga keltiradi. Ichki muhit iqtisodiy ob'ektning tuzilmaviy bo'linmalari va u erda ishlovchi xodimlar orqali ularning texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlarida shakllanadi.

Yuzaga kelish manbaiga bog'liq holda iqtisodiy ob'ekt doirasidagi axborot resurslarini tashkil etuvchi ichki va tashqi axborot mavjud.

Ichki muhit axboroti odatda aniq bo'lib, xo'jalikning moliyaviy holatini to'liq aks ettiradi. Uni tahlil etish ko'pincha standart formallashgan protseduralar yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi muhit – iqtisodiy ob'ektdan tashqarida bo'lgan iqtisodiy va siyosiy sub'ektlardir. Bu ob'ektning mijozlar, vositachilar, raqobatchilar, davlat organlari va xakozo bilan iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, siyosiy va boshqa munosabatlarini o'z ichiga oladi. Tashqi muhit xaqidagi axborot ko'pincha taxminiy, noaniq, noto'liq, ziddiyatli, ehtimolli bo'ladi.

Bu holatda u nostandart qayta ishlash usullarini talab etadi.

Iqtisodiy ob'ekt turli manbalardan quyidagi tashqi axborotni olishi mumkin:

1. Iqtisodiyotning ahvoli xaqida umumiy axborot. Manbalar: axborot – tahliliy materiallar, ixtisoslashgan gazetalar, jurnallar, Internet resurslari.
2. Ixtisoslashgan iqtisodiy axborot: moliyaviy bozor bo'yicha.
3. Tovarlar narxlari bo'yicha axborot. Manbalar: ixtisoslashgan jurnal va byulletenlar, kataloglar, Internet ma'lumotlar bazasi.
4. O'ziga xos axborot. Turli manbalar, jumladan, Internet. Uni axtarishda izlab topish tizimlaridan foydalaniladi.
5. Davlat boshqarish organlaridan axborot (qonunlar, qarorlar, soliq organlari xabarlari va hokazo).

Har qanday resurslar kabi, axborot resurslarini ham boshqarish mumkin, lekin ularni miqdoriy va sifat jihatidan baholash metodologiyasi, ularga boʻlgan ehtiyojni oldindan belgilash hali ishlab chiqilmagan, shunga qaramay iqtisodiy ob'ekt darajasida axborot ehtiyojlarini oʻrganish, axborot resurslarini rejalashtirish va boshqarish mumkin va zarur. Axborot resurslarini boshqarish deganda:

- har bir darajada va boshqarish funktsiyasi doirasida axborotga boʻlgan ehtiyojlarni baholash;
- iqtisodiy ob'ektning hujjat aylanishini oʻrganish, uni optimallashtirish, hujjatlar turi va shakllarini standartlash, axborot va ma'lumotlarni toʻplash;
- ma'lumotlar turlari nomunosibligini engib oʻtish;
- ma'lumotlarni boshqarish tizimini yaratish tushuniladi.

1.2 Universitet arxivining tuzilishi va ishlash strukturasi.

Arxiv (lot. archivum, yun. archeion — muassasa) hujjatlar saqlanadigan joy; 2) idoralar, tashkilotlar, shuning-dek ayrim shaxslar ish faoliyati davomida toʻplangan hujjatlar majmui. Temuriylar (XIV-XV-asr) keyinchalik Qoʻqon, Buxoro va Xiva xon-liklari davrida saroy arxiv-kutubxonalari boʻlgan. 1919 yil 5 -noyabr Turkiston Respublikasi Yagona Davlat Arxiv jamarmasi (YADAJ) va Maorif Xalq komissarligi qoshida Arxiv ishlari Markaziy boshqarmasi (AIMB), 1930 yillardan Oʻzbekiston Markaziy Arxiv boshqarmasi (OʻzMAB) vujudga keldi. 1931- yillarda Oʻzbekiston YADAJ boʻlimlari oʻrniga Markaziy arxiv (MA), Oʻzbekiston Markaziy Tarix arxivi (OʻzMTA), 1943 yillarda. Oʻzbekiston kinosurat, ovozli hujjatlar Markaziy Davlat arxivi, 1962 yillarda Oʻzbekiston Markaziy davlat tibbiyot arxivi (1965 yillardan Oʻzbekiston Tibbiyot va texnika hujjatlari Markaziy davlat arxivi) tashkil etildi. Arxivlar ishlarini uyunlashtirish va boshqarish uchun 1959 yillarda Oʻzbekiston ichki

ishlar vazirligi qoshida arxiv boshqarmasi tuzildi. 1961- yillardan mazkur Boshqarma Arxivlar Bosh boshqarmasiga aylantirilib, O`zbekiston Ministrlar Sovetiga bo`ysundirildi. 1992 yil 19 iyulda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi deb nomlandi. Qoraqalpoiston Respublikasi va viloyat Arxivlari hamda muassasalar tasarrufidagi Arxivlar unga bo`ysunadi. O`zRda jami 77 davlat Arxivii bo`lib, ularda 6 mln.ga yaqin hujjatlar, jumladan 360 ming-dan ortiq surat hujjatlari, 14 mingga yaqin ovozli hujjatlar, 17,5 mingga yaqin kinohujjatlar saqlanadi (1999). Markaziy davlat arxivida XIII-asrdan boshlab shu bugungacha bo`lgan hujjatlar bor. O`zbekiston rassomlarining ishlari O`zbekiston BA Badiiy jamarmasi, shaxsiy guplam va muzeylardan o`rin olgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo`qon va boshqa shaharlarda Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Ayniy, Muxtor Ashrafiy, Abdulla Qahhor, Fafur ulom, Oybek, Hamid Olimjon va boshqalarning ba`zi Arxiv materiallari ular uy-muzeylarida jamlangan. O`zbekistonda Arxivlarni shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan munosabatlar hamda O`zR arxiv muassasalari faoliyati O`zbekiston Respublikasining "Arxivlar to`risida"gi qonuni (1999- yil 15 -aprel) bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun O`zbekiston hududida mavjud bo`lgan barcha arxiv hujjatlarini to`liq qamrab olishga, O`zR Milliy arxiv fondining yaxlitligini saqlab qolishga va fuqarolar, ja-miyat va davlatning ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida arxiv hujjatlarini hisobga olish, ekspertiza qilish, ro`yxatdan o`tkazish, butlash hamda ulardan foydalanishning yagona tartibini belgilashga qaratilgan. Konunga ko`ra, hujjatlarda O`zbekiston xalqining moddiy va ma`na-viy hayoti aks ettirilgan barcha arxiv fondlarining majmui O`zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi deb hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Milliy arxiv 668 fondi davlat va nodavlat arxiv fondlaridan tashkil topadi. Davlat arxivlarida va davlatning boshqa hujjat xonalarida doimiy saqlanayotgan hujjatlar,

shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, prokuraturalar, sudlar, banklarda, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida, O`zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida vaqtincha saqlanayotgan arxivlar hujjatlari davlat arxiv fondini tashkil etadi. Nodavlat yuridik shaxslarning faoliyati natijasida to`plangan arxiv hujjatlari, shuningdek fuqarolarning shaxsiy davlat arxiv fondini tashkil etadi. Hujjatlarni O`zbekiston Respublikasining Milliy arxiv fondiga kiritish yoki hujjatlarni undan chiqarish ekspert komissiyasining xulosasi asosida amalga oshiriladi. Hujjatlarning qimmatligini aniqlash mezonlarini, ekspert komissiyalarini tuzish va ularning faoliyat ko`rsatish tartibini O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi belgilaydi.

Arxiv ishi to`g`risidagi qonun qonunchilik palatasining 2009-yil 3- noyabirda qabul qilindi unga ko`ra qonun 6 bob 36 moddadan iborat.

1-bob. Umumiy Qoidalar (1 - 5-moddalar)

2-bob. Arxiv ishi soxasidagi davlat boshqaruvi (6 - 8-moddalar)

3-bob. Milliy Arxiv fondi (9 - 15-moddalar)

4-bob. Arxivlarni tashkil etish (16 - 19-moddalar)

5-bob. Arxiv xujjatlarini jamlash, xisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish (20 - 29-moddalar)

6-bob. Yakunlovchi qoidalar (30 - 36-moddalar)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo`llaniladi:

Aloxida qimmatli xujjat - o`chmas tarixiy-madaniy va ilmiy qimmatga, jamiyat xamda davlat uchun aloxida ahamiyatga ega bo`lgan, xisobga olish, saqlash va foydalanishning aloxida tartibi belgilangan arxiv xujjati;

Arxiv - Arxiv xujjatlarini jamlash, xisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa;

Arxiv ishi - Arxiv xujjatlarini jamlash, xisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha faoliyat;

Arxiv fondi - yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro Alohida Arxiv xujjatlari majmui;

Arxiv xujjatlari - fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bo'lsa saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan xujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar;

Arxiv xujjatlarini depozitar saqlash - Arxiv xujjatlarini ularning mulkdori (egasi) bilan Arxiv, muzey, kutubxona o'rtasidagi kelishuvda (shartnomada) belgilanadigan muddatlar va shartlar asosida mulkdorning (egasining) arxiv xujjatlariga bo'lgan mulk huquqini (egallik huquqini) saqlab qolgan holda saqlash;

Idoraviy arxiv - yuridik shaxsning arxiv xujjatlarini jamlash, xisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

Ish yuritish - yuridik shaxsning xujjatlashtirish va rasmiy xujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini taminlab beruvchi jarayon;

Milliy arxiv fondi - O'zbekiston xalqining moddiy va manaviy xayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv xujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui;

Milliy arxiv fondining davlat katalogi - Arxiv xujjatlari milliy arxiv fondining tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining xajmi va tarkibi to'g'risidagi asosiy malumotlar mavjud bo'lgan xisobga olish xujjati;

Noyob xujjat - o'zida mavjud bo'lgan axborot yoki tashqi belgilari bo'yicha o'xshashi yo'q, yo'qotilgan taqdirda o'zining ahamiyati yoki asl

qo`lyozmaligi nuqtai nazaridan o`rnini to`ldirib bo`lmaydigan qloxidq qimmatli xujjat;

**Sug`urta nusxa** - Aloxida qimmatli xujjat yoki noyob xujjatning boshqa moddiy jismdagi, asl nusxada mavjud bo`lgan axborotni o`qish yoki ko`rish (eshitish) imkonini beruvchi ko`chirma nusxasi;

Shaxsiy tarkib bo`yicha xujjatlar - xodimning ish beruvchi bilan mexnatga oid munosabatlarini aks ettiruvchi arxiv xujjatlari.

**II.BOB. TIZIM MA`LUMOTLAR
BAZASI VA UNING TARKIBIY
QISIMLARI ISHLAB CHIQISHDA
QO`LLANILADIGAN
TEXNOLOGIYALARNI
TANLASH.**

2.1 Tizimni ishlab chiqishda qo'llaniladigan texnologiyalarni tanlash.

AJAX- Ajax texnologiyasi terminini Jesse James Garrent 2005-yil 18-fevraldagi “Veb sahifalarga yangi yondashuv” nomli maqolasida birinchi bo'lib ishlatgan. Keyinchalik uni amalda qo'llagan. AJAX - Asynchronous Javascript and XML ya'ni asinxron [JavaScript](#) va [XML](#).

Veb texnologiyalari 2 turga bo'linadi.

- Server
- Klient


Klient qismdagi ayrim qulayliklarning ta'minlanishi ajax texnologiyasi bilan bog'liq ya'ni internet tezlik uncha yuqori bo'lmasa ham ajax texnologiyasi yordamida serverdan ma'lumotlarni olish mumkin. Agar php yordamida serverga murojaat qiladigan bo'lsak sahifalar qayta yuklanishi kerak bo'ladi. Bunda internet tezligi yuqori bo'lishi kerak va har bir harakat uchun sahifalar yangilanishini kutish kerak. Ajax texnologiyasi serverga qismga yordamchi qism hisoblanadi, ya'ni foydalanuvchining imkoniyatlarini oshiradi.

Ajax texnologiyasining eng muhim jihatlaridan biri bu sahifalarni qayta yuklamasdan serverdan ma'lumotlarni yuklab oladi.

Ajax ning 2 ta xususiyati bor:

1. Sahifalar qayta yuklanmasidan serverga borib amal bajarib qaytib kela oladi. Bunda ma'lumotlar JSON yoki XML formatida jo'natiladi va qabul qilinadi.
2. DHTML ya'ni o'zgaruvchan sahifalar yaratish, ya'ni javascript bilan ishlash.

Qidiruv tizimi AJAX texnologiyasidan foydalanilgan (2.1.1-rasm).



№	Hujjat nomi	Bo'limi	Hujjat turi
Bunday hujjat yo'q			

```
<script>
function do1(){
    var name=$("#name").val();
    $.ajax({
        type:"POST",
        url:"searching.php",
        data:{name:name},
        success:function(res){
            $("#result").html(res);
        }

    });
}

function do2(){
    var section=$("#section").val();
    $.ajax({
        type:"POST",
        url:"searching.php",
        data:{section:section},
        success:function(res){
            $("#result").html(res);
        }

    });
}

function do3(){
    var d_type=$("#d_type").val();
    $.ajax({
        type:"POST",
        url:"searching.php",
```

```

data:{d_type:d_type},
success:function(res){
$("#result").html(res);
}

});
}
$(document).ready(function(){

$("#mshoV").text($("#mcount").text());
})
</script>

```

searching.php

```

<?php
include 'functions.php';
session_start();
if (isset($_SESSION['logged']) && $_SESSION['logged'] == 1) {
    $pdo = getPDO();
    if ($_POST) {
        $document = $pdo->query("SELECT d.*,s.section_name,dt.dt_name
FROM document d
JOIN sections s ON s.id=d.section_id
JOIN document_type dt ON dt.id=d.document_type_id");
        if (isset($_POST['name']) && $_POST['name'] != '') {

            $document = $pdo->prepare("SELECT d.*,s.section_name,dt.dt_name
FROM document d
JOIN sections s ON s.id=d.section_id
JOIN document_type dt ON dt.id=d.document_type_id
WHERE d.document_name LIKE :name");
            $document->execute(
                array(
                    'name' => '%' . $_POST['name'] . '%'
                )
            );
        }
    }
}

```

```

// $document->fetchall();
}
if (isset($_POST['section']) && $_POST['section'] != '0') {
    $document = $pdo->prepare("SELECT d.*,s.section_name,dt.dt_name
    FROM document d
    JOIN sections s ON s.id=d.section_id
    JOIN document_type dt ON dt.id=d.document_type_id
    WHERE s.id=:sct");
    $document->execute(
        array(
            'sct' => $_POST['section']
        )
    );
}
if (isset($_POST['d_type']) && $_POST['d_type'] != '0') {
    $document = $pdo->prepare("SELECT d.*,s.section_name,dt.dt_name
    FROM document d
    JOIN sections s ON s.id=d.section_id
    JOIN document_type dt ON dt.id=d.document_type_id
    WHERE dt.id=:dtn");
    $document->execute(
        array(
            'dtn' => $_POST['d_type']
        )
    );
}
// var_dump($_POST);
?>
<?php
if ($document->rowCount() != 0) {
    $k = 1;
    $m = 0;
    $V=0;
    While ($d = $document->fetch()) {
        $dd1 = new DateTime(date('Y-m-d'));
        $dd2 = new DateTime($d['date']);
        $interval = date_diff($dd1, $dd2);
        if ($d['status'] == 1 && $interval->format('%R%') == '+') {

```

```

$V=1;
?>
<tr>
<td><?php echo $k++; ?></td>
<td><?php echo $d['document_name'] ?></td>
<td><?php echo $d['section_name'] ?></td>
<td><?php echo $d['dt_name'] ?></td>
<td><a class="btn btn-info btn-xs"
href="document_data.php?shoV=noV&id=<?php echo $d['id']; ?>"><span
class="glyphicon glyphicon-list"></span></a>
<a class="btn btn-Varning btn-xs"
href="action.php?act=update&id=<?php echo $d['id']; ?>"><span
class="glyphicon glyphicon-edit"></span></a>
<a class="btn btn-danger btn-xs"
href="action.php?act=delete&id=<?php echo $d['id']; ?>"><span
class="glyphicon glyphicon-remove"></span></a>
</td>
</tr>
<?php
}
}
if($V==0){
echo "<tr><td></td><td><h4>Bunday hujjat yo'q</h4></tr></td>";
}
} else {
echo "<tr><td></td><td><h4>Bunday hujjat yo'q</h4></tr></td>";
}

}
}
else {
header("Location:index.php");
}

?>

```

PHP-1994 yili php tilinig yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilada maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan "C" tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Hademay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyun oyida dasturiy mahsulot PHP(Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo'lib: bir necha buyruqlarni tushunadigan kod analizatori(tekshiruvchisi), mehmonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan .

MySql-MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB firmasi tomonida yaratilgan bo'lib, 2008 yilning fevralida Sun Microsystems tomonida sotib olingan. Endlikda dastur kodini yaratishgda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, ya'ni tekin dasturiy ta'minot bo'lib, General Public License himoyasidadir ya'ni turli himoyalar qo'yilmagan(kalitlar,litsenziya). MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta'minotning kommerzial turi ham bor.MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. 1996 yildan beri ko'plab biblioteka va tool (vosita)lar nomi oldida My prefiksi qo'yila boshlangan.

Bu dastur o'zi bilan quyidagi amallarni bajaradi, yani kompyuterlar ichki tizimi bilan aloqa o'rnatish va ma'lumotlarni takrorlash va ma'lumotlarning saqlanish joyini aniqlash.

Berilganlar bazasining alohida bo'limlaridan turli foydalanuvchilar qismlarga ajratib foydalanishlari mumkin, berilganlar bazasining asosiy kompanent tizimi bu ma'lumotlar hisoblanadi.

Berilganlar bazasining boshqa bir komponenti, foydalanuvchi, texnik hodim (hardware) va dastur ta'minotchisi (software) xisoblanadi, bu yerda Hardware-ichki qo'shimcha xotiraga ega bo'lgan disk va magnit lentalaridir. Berilganlar bazasining dasturiy ta'minoti foydalanuvchi tizimi va berilganlar bazalari bilan o'zaro aloqani o'rnatish vazifasini bajaradi, shunday dasturiy ta'minot bo'limiga, berilganlar bazalarini boshqarish tizimlari (BBBT) deb yuritiladi.

Foydalanuvchilarning berilganlar bazalari bo'yicha barcha talabnomalarini berilganlar bazalarini boshqarish tizimlari boshqarib turadi, berilganlar bazalaridan foydalanuvchilar ham bir necha turga bo'linadi:

- Dasturchi foydalanuvchi
- Tizimli dasturchi
- Administratorlar

Berilganlar bazalaridagi dasturlarning to'g'ri yozilishiga dasturchi javob beradi, administrator esa berilganlar bazalaridagi barcha ma'lumotlarning saqlanishini va kengayishini qo'llab quvvatlaydi.

Ko'p tarmoqli foydalanuvchilar uchun administrator berilganlar bazasida asosiy jarayon hisoblanadi.

Berilganlar bazasining tizimi, quyidagi jarayonlarga ega bo'lishi kerak:

1. Bajarish- tizimning ishlashi vaqtida, foydalanuvchi so'roviga foydalanuvchi terminali mos tushishi kerak.
2. Minimal takrorlanish-ichki tashuvchilardagi axborotlar hajmi, berilganlar bazasidagi saqlanayotgan axborotlarning takrorlanish darajasi bilan minimal holda bo'lishi talab etiladi.
